QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
QDTU

INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026
№9

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar Crossref OpenAIRE CYBERLENIKA

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Muassis:
Qarshi davlat texnika universiteti
Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Faks: +998 (75) 221 1395
innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a’zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent
Ubaydullayev G‘ayrat Zuvaytovich -i.f.n., dotsent
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Xo‘janova Gulshoda Otamurodovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.9.9.2026.20 *Moliya, kredit va investitsiya*

CHORVACHILIK UCHUN OLINGAN DAVLAT GRANTLARINI HISOBGA OLISH

Ravshanov Alisher Bobaqulovich

УЧЕТ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ГРАНТОВ, ПОЛУЧЕННЫХ ДЛЯ ЖИВОТНОВОДСТВА

Равшанов Алишер Бабакулович

RECORDING OF STATE GRANTS RECEIVED FOR LIVESTOCK FARMING

Alisher Babakulovich Ravshanov

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash shakllari, xususan, subsidiyalar, davlat grantlari va boshqa davlat yordamlarining iqtisodiy mazmuni hamda ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari tadqiq etilgan. Chorvachilikda davlat yordamini hisobga olishning milliy va xalqaro yondashuvlari taqqoslangan. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 10-son BHMS-«Davlat yordamining hisobi va u to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoritib berish», 20-son BHXS-“Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordami to‘g‘risida ma’lumotlarni ochib berish” hamda 5-son BHMS–“Asosiy vositalar”, 41-son BHXS (IAS)-“Qishloq xo‘jaligi” talablari asosida davlat subsidiyalari va grantlarini tan olish, baholash, daromad sifatida aks ettirish va moliyaviy hisobotda yoritish tartibi ishlab chiqilgan. Shuningdek, nasldor qoramollarni xarid qilish, biologik aktivlarni saqlash xarajatlarini qisman qoplash va chorvachilik loyihalarini moliyalashtirish bilan bog‘liq shartli misollar asosida buxgalteriya provodkalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: chorvachilik, biologik aktiv, davlat yordami, davlat subsidiyasi, davlat granti, nasldor qoramol, buxgalteriya hisobi, 10-son BHMS, 20-son BHXS (IAS), 5-son BHMS, 41-son BHXS (IAS), adolatli qiymat, realizatsiya xarajatlarini chegirgan holdagi haqqoniy qiymat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются формы государственной финансовой поддержки животноводческого сектора в Республике Узбекистан, в частности, экономическое содержание субсидий, государственных грантов и других видов государственной помощи и их отражение в бухгалтерском учете. Проводится сравнение natsиональных и международных подходов к учету государственной помощи в животноводстве. На основе требований НСБУ №10 – «Учет государственной помощи и уточнение информatsии о ней», МСБУ №20 – «Учет государственных грантов и раскрытие информatsии о государственной помощи», а также НСБУ №5 – «Основные средства», МСБУ №41 – «Сельское хозяйство» разработана процедура признания, оценки, отражения в качестве дохода и отражения государственных субсидий и грантов в финансовой отчетности. Также представлены бухгалтерские проводки на условных примерах, связанных с приобретением племенного скота, частичным возмещением затрат на содержание биологических активов и финансированием животноводческих проектов.

Ключевые слова: животноводство, биологический актив, государственная помощь, государственная субсидия, государственная грантовая помощь, племенной скот, бухгалтерский учет, НСБУ №10, МСБУ №20, НСБУ№5, МСБУ №41, справедливая стоимость, справедливая стоимость за вычетом затрат на продажу.

Abstract. This article examines the forms of state financial support for the livestock sector in the Republic of Uzbekistan, in particular, the economic substance of subsidies, state grants and other types of state aid and their reflection in accounting. A comparison of national and international approaches to accounting for state aid in livestock farming is provided. Based on the requirements of NAS No. 10 - "Accounting for State Aid and Clarification of Information on It", IAS No. 20 - "Accounting for State Grants and Disclosure of Information on State Aid", as well as NAS No. 5 - "Fixed Assets", IAS No. 41 - "Agriculture", a procedure for recognizing, measuring, reflecting as income and reflecting state subsidies and grants in financial statements has been developed. Accounting entries are also presented using hypothetical examples related to the acquisition of breeding livestock, partial reimbursement of costs for the maintenance of biological assets and the financing of livestock projects.

Keywords: livestock farming, biological asset, government aid, government subsidy, government grant aid, breeding livestock, accounting, NAS No. 10, IAS No. 20, NAS No. 5, IAS No. 41, fair value, fair value less costs to sell.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan chorvachilik aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, qishloq joylarda bandlikni oshirish, fermer va dehqon xo‘jaliklarining daromadlarini ko‘paytirish hamda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida aholi sonining o‘sishi, urbanizatsiya jarayonlari, aholi daromadlarining ortishi va umumiy iste’mol hajmining kengayishi natijasida go‘sht mahsulotlariga bo‘lgan talab yildan-yilga oshib bormoqda.

Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, yil davomida mamlakatga jami 156,9 ming tonnadan ortiq mol go‘shti olib kelingan. Importning umumiy qiymati 661,2 million dollarga yetgan. Har bir kilogramm mol go‘shti o‘rtacha 4,2 dollardan to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, 2025 yilda mamlakatga 33 ming tonna qo‘y go‘shti, 64,9 ming tonna tovuq go‘shti olib kirilgan [1].

Hozirgi kunda mamlakatimizda go‘shtga bo‘lgan yillik talab 2 million 150 ming tonnani, ishlab chiqarish hajmi esa 1 million 600 ming tonnani tashkil etmoqda [2].

Bu holat mutaxassislar tomonidan chorvachilik sohasida ichki ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi va bozorlarda talabning yuqoriligi bilan izohlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2026 yil 28-apreldagi 206-sonli qarori "Agrar va oziq-ovqat sohalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2026-yil 5-avgustdagi “Chorvachilik tarmog‘i loyihalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–293-son qarorlariga muvofiq, sohada yangi subsidiya mexanizmi joriy etiladi.

Unga ko‘ra, 2026-yil 1-sentabrdan 2030-yil 1-yanvarga qadar qishloq xo‘jalik sohasida to‘lovlar agentligi tomonidan Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan naslchilik xo‘jaliklariga o‘stirish uchun qoldirilgan, identifikatsiya qilingan urg‘ochi nasldor qoramollarni saqlash xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratiladi.

Subsidiya miqdori birinchi nasldor urg‘ochi buzoq olinganda 1,5 million so‘m, ikkinchi nasldor urg‘ochi buzoq olinganda 2 million so‘mni tashkil etadi. Shuningdek, olingan buzoq 12 oylikkacha saqlanganda 1 million so‘m, 12 oydan 18 oylikkacha parvarishlanganda yana 1 million so‘m subsidiya beriladi [3].

Chorvachilik ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning asosiy ob’ektlaridan biri tirik hayvonlar - biologik aktivlar hisoblanadi. Ular o‘sish, semirish, ko‘payish, mahsulot berish va boshqa biotransformatsiya jarayonlarini boshdan kechiradi. Shu sababli chorvachilikda davlat tomonidan ajratiladigan subsidiya va grantlarning buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etish nafaqat moliyaviy natijani, balki biologik aktivlarning balans qiymatini ham to‘g‘ri shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobni BHMS asosida yurituvchi korxonalarda davlat yordamini buxgalteriya hisobida aks ettirishning muhim normativ asosi - 10-son BHMS-«Davlat yordamining hisobi va u to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoritib berish» hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda esa chorvachilik biologik aktivlarini hisobga olish 41-son BHXS (IAS)-«Qishloq xo‘jaligi» bilan tartibga solinadi. 41-son BHXS (IAS) biologik aktivlarni, umumiy qoida sifatida, realizatsiya xarajatlarini chegirgan holdagi adolatli qiymatda baholashni va ushbu qiymatdagi o‘zgarishlarni foyda yoki zararda tan olishni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekiston Respublikasining 10-son BHMSiga asosan davlat yordami deganda foydalanish uchun tashkilot tomonidan olingan byudjet subsidiyalari, davlat grantlari va maqsadli tushumlar tushuniladi.

Shuningdek, standartda davlat yordamini aktivlarga oid davlat yordami va daromadga oid davlat yordamiga ajratilgan.

Aktivlarga oid davlat yordami - berilishining asosiy sharti davlat yordami olish huquqiga ega bo‘lgan tashkilot tomonidan uzoq muddatli aktivlarni sotib olinishini, barpo etilishini yoki boshqa shakllarda xarid qilinishini talab etadigan davlat yordamidir. Bunday aktivlar turini yoki joyini yoki ularni xarid qilish yoki saqlash muddatlarini chegaralaydigan qo‘shimcha shartlar kiritilgan bo‘lishi mumkin[4].

Daromadga oid davlat yordami - aktivlarga oid davlat yordamidan tashqari, boshqa har qanday davlat yordamidir[4].

Byudjet subsidiyasi - tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va ularni realizatsiya qilishni moliyalashtirish yoki birgalikda moliyalashtirish yoxud maqsadli xarajatlarning o‘rnini qisman qoplash uchun byudjet tizimi byudjetlari hisobidan yuridik shaxslarga beriladigan pul mablag‘lari[4].

Davlat granti - ma’lum maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan yuridik shaxslarga buyurtmalar bo‘yicha tanlov asosida beriladigan pul mablag‘lari va moddiy resurslar hisoblanadi [4].

Chorvachilik faoliyatiga berilgan davlat yordamini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- nasldor qoramollarni xarid qilish bilan bog‘liq subsidiyalar;
- nasldor qo‘y va echkilarni xarid qilish bilan bog‘liq subsidiyalar;
- nasldor urg‘ochi hayvonlarni parvarishlash xarajatlarini qisman qoplash subsidiyalari;
- chorvachilik majmualarini tashkil etishga qaratilgan davlat yordami;
- yem-xashak bazasini shakllantirishga qaratilgan moliyaviy ko‘mak;
- veterinariya va bioxavfsizlik sohasidagi grantlar;
- xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi grant loyihalari.

Masalan, chorvachilik xo‘jaliklariga xorijdan import qilingan nasldor qoramol, qo‘y va echkilar uchun subsidiya berish mexanizmi O‘zbekistonda qo‘llanilgan davlat qo‘llab-quvvatlash shakllaridan biri hisoblanadi.

Chorvachilik korxonalarida davlat subsidiyalari va grantlarini hisobga olishda ikkita asosiy yondashuvni ajratish mumkin:

1. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosidagi yondashuv.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar uchun davlat yordamini buxgalteriya hisobida aks ettirish 10-son BHMS bilan tartibga solinadi.

Unda davlat yordamining:

-tan olinishi;

-baholanishi;

-aktivlar bilan bog‘liq qismi;

-daromad bilan bog‘liq qismi;

-moliyaviy hisobotda yoritilishi bo‘yicha qoidalar belgilangan.

2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosidagi yondashuv.

Agar chorvachilik korxonasi moliyaviy hisobotni MHXS asosida tuzsa, biologik aktivlarga 41-sonli BHXS (IAS) talablari qo‘llanadi.

41-sonli BHXS (IAS)ga muvofiq, tirik hayvon yoki o‘simlik biologik aktiv hisoblanadi. Chorvachilikda esa qoramol, qo‘y, echki va boshqa tirik hayvonlar biologik aktivlar sifatida qaraladi.

41-sonli BHXS (IAS) talablariga ko‘ra, biologik aktivlar, odatda, realizatsiya xarajatlarini chegirgan holdagi adolatli qiymatda baholanadi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida avvalo umumiy metodologik asos sifatida dialektika; ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, induktiv-deduktiv, abstrakt-mantiqiy metodlar, qiyoslash kabi nazariy umum-ilmiy metodlardan foydalanildi. Umum-ilmiy empirik metodlardan esa, ilmiy va qomusiy manbalarni sharhlash, kuzatish va retrospektiv tahlil usullari qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Chorvachilik korxonalarida chorva hayvonlari (biologik aktivlar) bilan bog‘liq davlat grantlarini hisobga olishda quyidagi ikkita jihatlarni hisobga olish kerak:

1. Daromadlarga kiritiladigan grantlari (foyda va zararlarga olib boriladigan) - tegishli shartlar bajarilganda daromad sifatida tan olinadi.

2. Aktivlarga kiritiladigan kiritiladigan grantlarni (sotib olish yoki yaratish bilan bog‘liq grant) - grantning tan olinishi va hisobdan chiqarilishi milliy standartlarda belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Daromadlarga kiritiladigan grantlar 10-son BHMSning 9–11-bandlariga muvofiq, grant tegishli xarajatlar amalga oshiriladigan hisobot davrlarida daromad sifatida tan olinadi.

Masalan, davlat granti chorva mollarini boqish xarajatlarini qoplash uchun ajratilgan bo‘lsa, tegishli shartlar bajarilganda u xarajatlar bilan bog‘liq davrlarda daromad sifatida tan olinadi.

Aktivlarga kiritiladigan kiritiladigan grantlar, agar davlat granti hayvonlarni (uzoq muddatli biologik aktivlarni) sotib olish yoki yaratish uchun berilgan bo‘lsa, u aktivlarga oid grant sifatida hisobga olinadi. Bunda grant, maqsadli tushum (grantlar) sifatida aks ettirilishi va aktivning foydali xizmat muddati davomida daromad sifatida tan olinishi mumkin.

Muqobil usulda esa aktivning balans qiymatini kamaytirishi mumkin[4].

Grantlarni buxgalteriya hisobida tan olishda eng muhim masala – grant olish huquqi paydo bo‘lganligini tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligidir.

Amaliyotda grant olish huquqini paydo bo‘lganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosan quyidagilar hisoblanadi:

- davlat organining qarori;
- grant ajratish to‘g‘risidagi qaror;
- elektron platformada tasdiqlangan ariza;
- grant olish huquqini tasdiqlovchi ma’lumotnoma;
- bank to‘lov hujjatlari;
- hayvonlarni identifikatsiya qilish ma’lumotlari;
- veterinariya hujjatlari;
- oldi-sotdi shartnomasi.

Shuning uchun buxgalter grantni faqat pul bank hisobvarag‘iga kelib tushganda emas, balki uni olish huquqi yuzaga kelgan paytda tan olish masalasini ham baholashi lozim.

Masalan, “Dunyo-M” AJ ikkinchi bor 20 bosh nasldor urg‘ochi buzoq sotib oldi.

Bir bosh buzoqning haqqoniy qiymati- 10 000 000 so‘m.

Sotib olingan jami nasldor urg‘ochi buzoqlarning haqqoniy qiymati:

20 × 10 000 000 = 200 000 000 so‘m.

Davlat tomonidan har bir hayvon uchun 2 000 000 so‘m subsidiya ajratilgan.

U holda jami subsidiya summasi:

20 × 2 000 000 = 40 000 000 so‘m.

1. Nasldor urg‘ochi buzoqlarni kirim qilinishiga:

Dt 1110 – “O‘sitishdagi hayvonlar” - 200 000 000 so‘m.

Kt 6010 – “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” - 200 000 000 so‘m.

2. Subsidiya olish huquqi tan olinganda.

Agar subsidiya biologik aktivni xarid qilish bilan bog‘liq aktivlarga oid davlat yordami sifatida tasniflansa:

Dt 4890 – “Boshqa debitorlik qarzlari” - 40 000 000 so‘m.

Kt 8820 – “Subsidiyalar” - 40 000 000 so‘m.

3. Subsidiya bank maxsus hisobvarag‘iga kelib tushganda:

Dt 5530 – “Boshqa maxsus hisobvaraqlar” - 20 000 000 so‘m.

Kt 4890 – “Boshqa debitorlik qarzlari” - 20 000 000 so‘m.

4. Subsidiya berish shartlari to‘liq bajarilganidan so‘ng davromad sifatida tan olinishiga:

Dt 8820 – “Subsidiyalar” - 40 000 000 so‘m.

Kt “Xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlar” – 40 000 000 so‘m, yoki

Kt 9390 – “Boshqa daromadlar” - 40 000 000 so‘m.

Masalan, “Dunyo-M” AJga nasldor urg‘ochi buzoqlarni 12 oygacha oziqlantirish, veterinariya xizmatlari va parvarishlash xarajatlarining bir qismini qoplash uchun 20 000 000 so‘m subsidiya berildi.

Bunday subsidiya biologik aktivning sotib olinishi yoki barpo etilishiga emas, balki joriy xarajatlarni qisman qoplashga qaratilgan bo‘lsa, u daromadga oid davlat yordami sifatida tasniflanishi mumkin.

Subsidiya tan olinganda:

Dt 4890 – “Boshqa debitorlik qarzlari” - 20 000 000 so‘m.

Kt 8820 – “Subsidiyalar” - 20 000 000 so‘m.

Subsidiya bank maxsus hisobvarag‘iga kelib tushganda:

Dt 5530 – “Boshqa maxsus hisobvaraqlar” - 20 000 000 so‘m.

Kt 4890 – “Boshqa debitorlik qarzlari” - 20 000 000 so‘m[6].

Har oyda subsidiyaning tan olinadigan summasiga:

20 000 000 : 12 = 1 666 667 so‘m.

Dt 8820 – “Subsidiyalar” - 1 666 667 so‘m.

Kt “Xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlar” - 1 666 667 so‘m, yoki

Kt 9390 – “Boshqa daromadlar” – 1 666 667 so‘m.

Xo‘jalik sub’ekti muayyan shartlarni bajarmagan taqdirda davlat subsidiyalarini qaytarib berishi kerak. Bunday holatda subsidiyalarning qaytarilishi bilan avvalgi hisobot davriga tuzatish kiritilmaydi, balki buxgalterlik smetalaridagi hisob-kitob ma’lumotlari qayta ko‘rib chiqiladi. Daromadga kiritiladigan subsidiyalarni qaytarish quyidagicha amalga oshiriladi[4]:

1. Balans passivida aks ettirilgan subsidiyalar qoldiqlari hisobiga, bu operatsiya schyotlarda quyidagicha aks ettiriladi:

Ya’ni, 20 000 000 – 1 666 667 = 18 333 333 so‘m.

Dt 8820 – “Subsidiyalar” - 18 333 333 so‘m.

Kt 5110-“Hisob-kitob schyoti” - 18 333 333 so‘m, yoki

Kt 5530 – “Boshqa maxsus hisobvaraqlar” – 18 333 333 so‘m.

2. Agar qaytarilayotgan subsidiya qoldiqdan oshib ketsa, u holda oshgan summa xarajat sifatida e’tirof etiladi. Bu operatsiya schyotlarda quyidagicha aks ettiriladi:

Dt 9430 – “Boshqa operatsion xarajatlar” - 1 666 667 so‘m.

Kt 5110-“Hisob-kitob schyoti” - 1 666 667 so‘m, yoki

Kt 5530 – “Boshqa maxsus hisobvaraqlar” – 1 666 667 so‘m.

MHXS nuqtai nazaridan chorvachilikda davlat grantlarining hisobi yanada aniq tartibga ega.

41-sonli BHXS (IAS)ga muvofiq, agar biologik aktiv realizatsiya xarajatlarini chegirgan holdagi haqqoniy qiymatda baholansa, unga bog‘liq shartsiz davlat granti grant olinishi lozim bo‘lgan paytda foyda yoki zarar tarkibida tan olinadi.

Agar grant shartli bo‘lsa, u shartlar bajarilgandagina foyda yoki zararda tan olinadi.

Bu qoida chorvachilik korxonalari buxgalteriya hisobi uchun juda muhim.

Masalan, davlat “korxona 5 yil davomida nasldor qoramollarni saqlashi shart” degan shart bilan grant bersa, ushbu shart bajarilgunga qadar grantni to‘liq daromad sifatida tan olish mumkin emas.

Masalan, davlat tomonidan “Dunyo-M” AJga 100 000 000 so‘m grant ajratildi.

Grant shartlari quyidagicha:

- korxona 5 yil davomida chorvachilik faoliyatini davom ettirishi;
- nasldor hayvonlarni sotmasligi;
- hayvonlarni identifikatsiya qilishi;
- veterinariya talablariga rioya qilishi.

Bu holatda shartlar bajarilgunga qadar grantni daromad sifatida tan olish maqsadga muvofiq emas.

1. Ajratilgan grant to‘g‘risida xabarnoma olinganda:

Dt 4890 – “Boshqa debitorlik qarzlari” - 100 000 000 so‘m.

Kt 8810 – “Grantlar” - 100 000 000 so‘m.

2. Grant mablag‘i bank maxsus hisobvarag‘iga kelib tushganda:

Dt 5530 – “Boshqa maxsus hisobvaraqlar” - 100 000 000 so‘m.

Kt 4890 – “Boshqa debitorlik qarzlari” - 100 000 000 so‘m.

41-sonli BHXS (IAS) bo‘yicha u tegishli shartlar bajarilganda daromad sifatida tan olinadi.

3. Grand shartlari to‘liq bajarilganda, 5-yilda grantni daromad sifatida tan olishiga:

Dt 8810 – “Grantlar” - 100 000 000 so‘m.

Kt 9393 – “Biologik aktivlar bo‘yicha davlat grantlaridan olingan foyda”- 100 000 000 so‘m.

Ya’ni, davlat grantining majburiyatdan daromadga o‘tkazilishi amalga oshiriladi.

41-sonli BHXS (IAS) talablari bo‘yicha agarda korxona shartsiz grant ajratilganligi to‘g‘risida xabarnoma olingansa, u daromad sifatida tan olinadi.

Masalan, “Ulug‘bek elegant chorvasi” MChJda 40 bosh mahsuldor qoramol mavjud.

Ularning hisobot sanasidagi haqqoniy qiymati: 2 400 000 000 so‘m.

Realizatsiya xarajatlari: 40 000 000 so‘m.

Demak, qoramollarning haqqoniy (adolatli) qiymati = 2 360 000 000 so‘m.

Davlat korxonaga chorvachilikni qo‘llab-quvvatlash uchun: 80 000 000 so‘m shartsiz grant ajratdi.

1. Grantni olish huquqi paydo bo‘lganda:

Dt 4890 – “Boshqa debitorlik qarzlari” - 80 000 000 so‘m.

Kt 8810 – “Grantlar” - 80 000 000 so‘m.

Bir vaqtni o‘zida grand daromad sifatida tan olinadi. Bunga:

Dt 8810 – “Grantlar” - 80 000 000 so‘m.

Kt 9393 – “Biologik aktivlar bo‘yicha davlat grantlaridan olingan foyda” - 80 000 000 so‘m.

2. Pul kelib tushganda:

Dt 5110 – “Hisob-kitob schyoti” - 80 000 000 so‘m.

Kt 4890 – “Boshqa debitorlik qarzlari” - 80 000 000 so‘m.

Bu holatda grant biologik aktivning balans qiymatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kamaytirmaydi.

41-sonli BHXS (IAS)ning muhim xususiyati shundaki, biologik aktivning haqqoniy qiymatidagi o‘zgarishlar foyda yoki zararda tan olinadi.

Masalan, “Dunyo-M” AJning yil boshida 40 bosh qoramolning sotish xarajatlari chegirib tashlangan haqqoniy qiymati - 2 360 000 000 so‘m.

Yil oxirida: 2 480 000 000 so‘m.

O‘zgarish: 2 480 000 000 – 2 360 000 000 = 120 000 000 so‘m.

Yil oxirida qoramollarni haqqoniy qiymatini o‘zgarishidan olingan daromadga:

Dt 0170 – “Biologik aktivlar (hayvonlar)” - 120 000 000 so‘m.

Kt 9391 – “Biologik aktivlarning haqqoniy qiymati o‘zgarishidan olinadigan foyda” - 120 000 000 so‘m.

Agar davlat granti ham 80 000 000 so‘m bo‘lsa, u biologik aktiv qiymatining 120 000 000 so‘mlik o‘zgarishiga avtomatik ravishda qo‘shilmaydi. Grant 41-sonli BHXS (IAS)ning davlat grantlariga oid qoidalari bo‘yicha alohida tan olinadi.

Chorvachilik korxonalari uchun davlat yordamini buxgalteriya hisobida hisobga olishni quyidagi bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiq (1-rasm):



1-rasm. Chorvachilik korxonalarida davlat yordamini buxgalteriya hisobida hisobga olish bosqichlari.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasiga berilgan subsidiyalar va grantlarni buxgalteriya hisobiga olish amaliyotida bir qator muammolar mavjuddir.

Birinchi muammo - subsidiya va grant tushunchalarining aralash qo‘llanilishi.

Amaliyotda «grant», «subsidiya», «kompensatsiya», «davlat yordami» tushunchalari bir-biriga yaqin ma’noda ishlatilishi mumkin. Bu esa buxgalteriya hisobida ularni tan olish usulini belgilashda qiyinchilik tug‘diradi.

Ikkinchi muammo - biologik aktiv va davlat yordamining o‘zaro bog‘liqligi.

Chorvachilik amaliyotida davlat yordami hayvonning:

- xarid qiymati;
- saqlash xarajatlari;
- naslchilik xarajatlari;
- veterinariya xarajatlari;
- oziqlantirish xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shu sababli grantlarning iqtisodiy maqsadini aniqlash juda muhim.

Uchinchi muammo – adolatli qiymatni aniqlash.

41-sonli BHXS (IAS)da biologik aktivlarni haqqoniy qiymatda baholash muhim o‘rin tutadi. Biroq O‘zbekistonda ayrim turdagi nasldor va mahsuldor

hayvonlar bo‘yicha faol bozor narxlarini aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin.

Bu holatda korxona baholash metodologiyasini, bozor ma’lumotlarini va asosiy taxminlarni hujjatlashtirishi lozim.

To‘rtinchi muammo - shartli grantlarni hisobga olish.

Grant olingan bo‘lsada, uni darhol daromad sifatida tan olish har doim ham to‘g‘ri emas. Agar grant shartlarga bog‘langan bo‘lsa, shartlarning bajarilganligini nazorat qilish talab etiladi.

Chorvachilik korxonalarida davlat subsidiyalari va grantlarining hisobini takomillashtirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishni taklif etish mumkin:

1. Biologik aktivlar bo‘yicha subsidiyalarni alohida analitik hisobvaraqlarda yuritish. Masalan:

8810-«Grantlar»ni:

8811-«Chorvachilik bo‘yicha grantlar»

8812-«Naslchilik grantlari» va h.k.

8820-«Subsidiyalar»ni:

8821-«Nasldor qoramollar uchun subsidiyalar»

8822-«Nasldor qo‘y va echkilar uchun subsidiyalar» kabi analitik subschyotlardan foydalanish hisob ma’lumotlarining shaffofligini oshiradi.

2. Hayvonlar identifikatsiya tizimini buxgalteriya ma’lumotlari bilan integratsiyalash.

Har bir nasldor hayvonning identifikatsiya raqami buxgalteriyadagi biologik aktiv kartochkasi bilan bog‘lanishi maqsadga muvofiq.

3. Subsidiya va grantlar bilan biologik aktivlarning haqqoniy qiymatidagi o‘zgarishni alohida hisobga olish.

Bu MHXS talablari nuqtai nazaridan ayniqsa muhim. Chunki subsidiyalar va grantlardan olingan daromad bilan bilogik aktivlarni adolatli qiymatning o‘zgarishi iqtisodiy mazmun jihatidan bir xil operatsiya emas.

4. Elektron subsidiya platformalarini buxgalteriya dasturlari bilan integratsiya qilish.

Subsidiyaga ariza berishdan tortib, uni tasdiqlash va bank hisobvarag‘iga tushishigacha bo‘lgan jarayon elektron tarzda nazorat qilinsa, buxgalteriya hisobining ishonchliligi oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda 10-son BHMS davlat yordamini hisobga olishning milliy asosini shakllantiradi. Mazkur standart byudjet subsidiyalari, davlat grantlari va maqsadli tushumlarni davlat yordami sifatida belgilaydi hamda aktivlarga oid va daromadga oid davlat yordamini farqlaydi.

MHXS nuqtai nazaridan esa chorvachilikda 41-sonli BHXS (IAS) talablari muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra biologik aktivlar, umumiy qoida sifatida, realizatsiya xarajatlarini chegirgan holdagi haqqoniy qiymatda baholanadi va ushbu qiymat o‘zgarishlari foyda yoki zararda tan olinadi.

Shuningdek, 41-sonli BHXS (IAS) biologik aktiv sotish xarajatlari chegirilgan holatdagi adolatli qiymat asosida baholanganda shartsiz davlat grantini grant olinishi lozim bo‘lgan paytda, shartli grantni esa grant shartlari bajarilganda foyda yoki zararda tan olishni nazarda tutadi.

Shundan kelib chiqib, chorvachilik korxonalarida davlat yordamini hisobga olishning takomillashtirilgan modeli «davlat yordami turi → iqtisodiy maqsadi → shartlilik darajasi → biologik aktiv bilan bog‘liqligi → tan olish mezoni → baholash → buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishi → moliyaviy hisobotda yoritish» zanjiri asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuv davlat mablag‘laridan foydalanish ustidan buxgalteriya nazoratini kuchaytiradi, biologik aktivlar qiymatini ishonchli aks ettirish imkonini beradi va O‘zbekistondagi milliy buxgalteriya hisobi amaliyotini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://vaqt.uz/uz/news/2025-yilda-ozbekistonga-gosht-importi-keskin-osgan-18855?utm_source=chatgpt.com.

2. https://gov.uz/oz/digital/news/view/203108?utm_source=chatgpt.com.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-avgustdagi “Chorvachilik tarmog‘i loyihalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–293-son qarori. Lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 14 iyundagi 136-son buyrug‘i. «O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (10-sonli BHMS) “Davlat yordamining hisobi va u to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoritib berish”ni tasdiqlash to‘g‘risida».

5. 41-son BHXS “Qishloq xo‘jaligi” https://nrm.uz/contentf?doc=708861

6. 21-sonli BHMS - 21-son BHMS "Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma". https://nrm.uz/contentf?doc=768406

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Ravshanov Alisher Bobaqulovich Qarshi davlat texnika universiteti / Равшанов Алишер Бабакулович Каршинский государственный технический университет /
Alisher Babakulovich Ravshanov Karshi State Technical University
E-mail: alisherravshanov0571@gmail.com

Содержание

Влияние управления временем в туристических услугах на эффективность обслуживания и удовлетворенность клиентов…….. 5
Малика Салохидиновна Толипова
Системные проблемы и возможности развития инфраструктуры финтех на финансовом рынке Узбекистана…….. 9
Мохинур Шухратовна Пулатова
Пути повышения эффективности сферы услуг и усиления её влияния на благосостояние населения…….. 13
Зафар Комилович Рахимов
Совершенствование механизмов обеспечения экономической устойчивости организаций в условиях оптимизации рабочих мест…….. 20
Жахонгир Акрам угли Одилов
Анализ механизмов управления израильской стартап-экосистемой и практические уроки для развития стартап-экосистемы Узбекистана……. 26
Рустам Рамзович Абдураупов, Эльмурод Содиков
Научно-теоретические взгляды на использование искусственного интеллекта в развитии банковских услуг…….. 36
Айгуль Калмурзаевна Мамутова
Влияние конвергенции отраслей сельского хозяйства на эффективность производства в Кашкадарьинской области: Организационно-экономический анализ……. 42
Навруzхон Салохиддинович Амонов
Железнодорожный коридор Китай–Кыргызстан–Узбекистан: Влияние на экономический рост регионов и их логистический потенциал…… 48
Муроджон Умарович Курбанбаев
Зарубежный опыт и современные технологии в развитии малого бизнеса и частного предпринимательства…….. 54
Ширин Шодмоновна Файзиева
Организационно-экономические механизмы совершенствования жилищной политики в Узбекистане…….. 62
Шахрибону Анвар кизи Юлдошева
Экономическая эффективность управления знаниями и навыками на предприятиях…… 66
Озоджон Шавкат угли Мусаев
Пути расширения сферы услуг в Самаркандской области на основе стимулирования предпринимательства и государственно-частного партнёрства…….. 71
Диёра Шерзод кизи Шерзодова
Эффективное использование туристских ресурсов как фактор устойчивого развития регионального сектора услуг…….. 76
Мустафохон Абдувоси углу Тошхужаев
Влияние международных политических войн на мировую экономику и международные экономические отношения: Макроэкономический анализ и геополитические риски…… 80
Эгамберди Останов
Новые инновационные направления устойчивого развития промышленных предприятий: Анализ на примере Кашкадарьинской области……. 86
Жамшид Улугбек угли Рузикулов
Экосистемная модель коммерческого банка, архитектура управления и риски……. 93
Акрам Одилович Очилов, Мирзохид Шухрат угли Раимов
Применение интегрального показателя и эконометрических моделей для оценки устойчивости торговой системы (На примере Кашкадарьинской области)…… 100
Голибжон Холмуминович Махматкулов
Совершенствование обеспечения сельскохозяйственной техникой за счёт лизинга, кредитов и собственных средств (на примере хлопководства)……. 106
Бекзод Бекматович Джураев
Интегральный индекс оценки прочности кормовой базы фермерских хозяйств: Методика и апробация в Ташкентской и Самаркандской областях…….. 112
Достон Собиржон угли Ибодуллаев
Учет государственных грантов, полученных для животноводства…….. 121
Алишер Бабакулович Равшанов
Влияние технологий искусственного интеллекта и big data на эффективность управления предприятием…… 127